

**GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMI DASTURLARI ASOSIDA YER
UCHASTKALARINI XATLOVDAN VA DAVLAT RO'YXATIDAN
O'TKAZISH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Muxammadiyeva Muxlisa Malikovna

*Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti
5A311301-Kadastr (Faoliyat turlari bo'yicha) talabasi*

Ilmiy rahbar: Kadastr agentligi

Samarqand Shahar fililali boshlig'i X.Sh. Abjalov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola geografik axborot tizimi va ushbu tizim yordamida xatlovdan, davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tasvirlangan

Kalit so'zlar: Geo axborot, GAT, monitoring, jamiyat, raqamlashtirish, kommunikatsiya, geofazoviy, modellashtirish

ANNOTATION

This article describes the geographic information system and the work of the state registry using this system

Key words: geo information, GAT, monitoring, society, digitization, communication, geospatial, modeling

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается геоинформационная система и работа госреестра с использованием этой системы

Ключевые слова: геоинформация, ГАТ, мониторинг, общество, цифровизация, связь, геопространственность, моделирование.

KIRISH

Geoaxborot tizimi – bu asosiy vazifalari tabiat va jamiyat hodisalarining geofazoviy ma'lumotlarini maxsus vositalar yordamida to'plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo'lgan mutaxassis va tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan dasturiy tizimdir"

Geografik axborot tizimi — asosiy vazifalari fazoviy-geografik ma'lumotlarni to'plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo'lgan mutaxassis tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan kompyuter tizimidir.

Sodda qilib aytganda, geografik axborot tizimi (GAT) o'z ichiga xaritashunoslik, statistik tahlil hamda ma'lumotlar bazasini mujassamlashtiradi. GAT keng tarmoqli soha bo'lib, xaritashunoslik, masofadan zondlash, yer tuzish, tabiiy resurslarni boshqarish, fotogrammetriya, geografiya, shaharsozlik, samoviy video hamda mahalliy qidiruv tizimlarida keng foydalanib kelinmoqda. Bu ma'lumotlarni boshqarish,

kartagrafik tasvirlar va tahlil qilish uchun yaratilgan ichki pozitsiyalangan fazoviy axborot tizimidir. GAT bu inson faolligi va dasturiy apparatning geografik ma'lumotni saqlash, boshqarish va tasvirlashga mo'ljallangan kompyuter tizimidir. GAT ilk bora XXasrning 60- yillarida AQSH va KANADAda harbiy maqsadlarda foydalanishi natijasida vujudga kelgan. Keyinchalik bu tizim yordamida kadastr malumotlari sifatida keng foydalanilib kelmoqda.

METODOLOGIYA

Geoaxborot tizimi – bu asosiy vazifalari tabiat va jamiyat hodisalarining geofazoviy ma'lumotlarini maxsus vositalar yordamida to'plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo'lgan mutaxassis va tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan dasturiy tizimdir". Geoaxborot tizimiga yana turlicha ta'riflar keltirish, u haqidagi muhokamalarni davom ettirish mumkin, biroq barcha ta'riflarning zamirida yuqorida keltirilgan asosiy ma'no yotadi. Shuning uchun keltirilgan ta'rifni bosh ta'rif deb qabul qilish mumkin. Yuqorida berilgan ta'rifdagi fazoviy-geografik ma'lumotlar turkumi deganda barcha yer to'g'risidagi ma'lumotlarni, jumladan koordinatalarni, yer uchastkalari chegaralarini, ular joylashgan joy to'g'risidagi ma'lumotlarni, joyning huquqiy va iqtisodiy ma'lumotlarini hamda ko'plab muhim bo'lgan fazoviy ma'lumotlarni tushunish lozim. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari 7 Quyidagi rasmda geoaxborot tizimining umumiy ko'rinishi keltirilgan bo'lib, ushbu tizim turli adabiyotlarda yanada batafsilroq yoki soddalashgan holda berilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu masalalar borasida qonunchiligimizda ham bir necha izlanishlar kuzatilmoqda , jumladan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Qishloq xo'jaligi yerlari bilan bog'liq munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, davlat monitoringi, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish tizimini tubdan takomillashtirish va sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6061-son farmoniga asosan:

a) Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish sohasida samarali davlat nazoratini amalga oshirishda: qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish; qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish;

qishloq xo'jaligi yerlarining muhofaza qilinishini ta'minlash;

qishloq xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatini va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

tuproq bonitirovkasini o'tkazish, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha ishlarini tashkil etadi.

b) Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o'rinlarda – Kadastr agentligi) yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat kadastrlarini yuritish sohasida:

yer toifasidan qat'i nazar barcha turdagi noqonuniy yer uchastkalari hamda bino-inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik holatlarini aniqlaydi;

yer uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishi va ushbu yer uchastkalarida o'zboshimchalik bilan imorat qurilishini aniqlaydi;

yer uchastkasi chegaralarini o'zboshimchalik bilan o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi;

davlat kadastrlarini yuritish tartibiga rioya etilishining nazorat qilinishini ta'minlaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi hududlarida qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilishda davlat nazoratini yanada mustahkamlash maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi tuzilmasida:

a) axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining agrar sohani raqamlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari va unga bo'ysunuvchi markaziy apparatdagi 16 ta shtat birliklarini qisqartirish hisobiga:

agrar sohani jadal raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohalariga zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish masalalariga mas'ul bo'lgan vazir o'rinbosari lavozimi kiritilsin;

Agrar sohada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi va Geoaxborot texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi tashkil qilinsin;

Bunda, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi "Agrosanoatni raqamlashtirish markazi" davlat muassasasi faoliyatini muvofiqlashtirish agrar sohani jadal raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohalariga zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish masalalariga mas'ul bo'lgan vazir o'rinbosariga yuklatilsin;

b) 2021-yil 1-martdan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishni nazorat qilishga doir 110 ta shtat birliklarini qisqartirish hisobiga vazirlikka to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvchi Qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tashkil etilsin;

v) qonunchilikda belgilangan tartibda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda yer tuzish, yer monitoringi, ekinlarni joylashtirish va ekilishini monitoring qilish tadbirlarini amalga oshirish maqsadida Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasi mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lar, xalqaro moliya

institutlari mablag‘lari va xorijiy tashkilotlarning grantlari hisobidan qo‘shimcha shtat birliklari kiritilsin;

g) vazirlik huzuridagi “Monitoring xizmati” davlat muassasasi va vazirlik markaziy apparatidagi Ichki nazorat xizmati negizida 8 ta shtat birligidan iborat Ichki audit va komplayens-nazorat boshqarmasi tashkil etilsin.

3. Kadastr agentligining “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) va uning hududiy bo‘linmalari shtat birliklari hamda moddiy-texnika bazasi, Institutning hududiy bo‘linmalari balansida turgan bino-inshootlar 2021 yil 1 martdan boshlab Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimiga o‘tkazilsin.

Bunda, 2023-yil 1-yanvarga qadar:

Institut Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, “S” mavzesida joylashgan Kadastr agentligi binosining bir qismidan;

Kadastr agentligining hududiy boshqarmalari va tashkilotlari Institutning hududiy bo‘linmalariga qarashli binolarning bir qismidan tekin foydalanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyayev M.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017 yil. 39-41 betlar.
2. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti-farovonlik manbai. Toshkent. O‘zbekiston, 1994 yil.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. Toshkent. O‘zbekiston, 1997 yil.
3. Karimov I.A. Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti-to‘kin hayot manbai. Toshkent. O‘zbekiston. 1998 yil.
4. Komilov O.K. Мелиорация засоленных почв Узбекистана. Ташкент. «Фан». 1985 год. 242-244 стр.
5. Abdiyev A.A. Картографирование почвенного засоления хозяйств Бухарской области и его практическое применение. Сбор.научных тр. Эколого-географические основы комплексного основания южного Кизилкума. Ташкент. 1984. 84-88 стр.